

**1991-2024 YILLARDA BUXORO VILOYATIDA OLIY TA'LIM
TIZIMI RIVOJI**

Tursunpulatova Barchinoy Safo qizi,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti

Email: BarchinoyTursunpo'latova1995@mail.ru

Tel:+998909722795

Annotation: Mazkur maqolada 1991–2024 yillar oralig‘ida Buxoro viloyatida oliy ta'lismizining rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Mustaqillik yillaridan boshlab viloyatda oliy ta'lismizning muassasalari soni va sifati sezilarli darajada o'sgani, yangi yo'nalishlar va ta'lismizning shakllari joriy etilgani ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Buxoro davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda boshqa yangi tashkil etilgan oliy ta'lismizning muassasalari faoliyati alohida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida viloyatda oliy ta'lismizning oshgani va uning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan.

Keywords: Buxoro viloyati, oliy ta'lismiz, ta'lismizning tizimi, islohotlar, moddiy-texnik baza, zamonaliviy texnologiyalar, institut, filial.

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы развития системы высшего образования в Бухарской области в период 1991–2024 годов. Отмечено, что с обретением независимости значительно возросло количество и качество высших учебных заведений в регионе, были внедрены новые направления и формы обучения. Отдельно рассмотрена деятельность Бухарского государственного университета, Бухарского инженерно-технического института и других вновь созданных вузов. На основе результатов исследования освещено повышение качества высшего образования в области и его влияние на социально-экономическое развитие региона.

Ключевые слова: Бухарская область, высшее образование, система

образования, реформы, материально-техническая база, современные технологии, институт, филиал.

Abstract: This article analyzes the development processes of the higher education system in the Bukhara region during the period from 1991 to 2024. It highlights the significant growth in both the number and quality of higher education institutions following independence, along with the introduction of new academic programs and educational formats. The activities of Bukhara State University, the Bukhara Institute of Engineering and Technology, and other newly established institutions are examined in detail. The research findings emphasize the improvement in the quality of higher education in the region and its impact on socio-economic development.

Keywords: Bukhara region, higher education, education system, reforms, material and technical base, modern technologies, institute, branch.

Kirish. Ta'lif tizimining eng asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan oliy ta'lifning tubdan o'zgartirilishi mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi bo'ldi. Oliy ta'lif uzlusiz ta'lif tizimining bosh bo'g'inlaridan biri bo'lib, bu soha jamiyatning iqtisodiyoti, fani, madaniyati va texnologik jarayoni bilan yaxlit holda chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun uning taraqqiyoti umummilliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limda yangi an'analar va yangi muammolami yuzaga keltirdi. Bu jarayon dunyoning barcha universitetlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda barcha universitetlar uchun dunyo ta'lif kengliklarida o'z mavqeyini saqlab qolish, teng huquqli hamkor sifatida bo'lish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi galda universitetlar ta'lif tizimining zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta'lif tizimining asosi bo'lgan yangi o'quv rejalar, dasturlar yaratildi. 1993-yildan davlat ta'lif standartlari ishlab chiqildi va bakalavrular tayyorlashda qo'llanila boshladi. Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida

mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"[1] maxsus qaror qabul qilindi. Mazkur qaror 2021 yil 22 fevraldan o‘z kuchini yo‘qotgan. Mazkur qarorga ko‘ra O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi bilan birqalikda oliy o'quv yurtlarining hamda akademik institutlarning taniqli olimlarini hamda yuqori malakali o‘qituvchilarini pedagogik va ilmiy faoliyatni olib borish uchun, doimiy ishdagi besh yil mobaynida ularning lavozim maoshlariga 50 foizgacha miqdorda ustamalar belgilashni nazarda tutgan holda yo‘llash, o‘quv semestrlari davrida Toshkent shahridagi o‘quv yurtlarining tajribali professor hamda o‘qituvchilarini leksiyalar kurslarini o‘qish va fan, texnika hamda texnologiya yangiliklari bilan tanishtirish maqsadida mintaqaviy yo‘llashni amalda qo‘llash, oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-pedagogik potensialidan va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish maqsadida 1995-yil 1-iyulgacha oliy o‘quv yurtlarining viloyatlardagi filiallari tarmog‘i qayta ko‘rib chiqish va ularni viloyatlar o‘quv yurtlariga fakultetlar, o‘quv bo‘linmalari sifatida berishning maqsadga muvofiqligi belgilab olindi. Shuningdek, qaror asosida har yili Toshkent shahar oliy o‘quv yurtlarida viloyatlar oliy o‘quv yurtlaridan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida aspirantura va doktoranturaga yo‘llayotganlar uchun o‘rinlar ajratish, oliy o‘quv yurtlari huzurida, ularning o‘qituvchi-professorlarini jalb qilib, ularga oliy o‘quv yurtlari, gimnaziyalar, litseylar tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Asosiy qism. Mustaqillining dastlabki yillarda oliy ta’lim tizimida modernizatsiyalash jarayoni hamda fan va oliy ta’lim mushtarakligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanilib, oliy ta’limni tarkiban qayta qurishdan boshlandi: birinchidan, universitet ta’limining ustuvorligi; ikkinchidan, OTMlarni bo‘lish va ixtisoslashtirish; uchinchidan,

OTMlarni hududiylashtirish va joylashtirishga ahamiyat qaratildi [2].

Buxoro viloyatida ham mustaqillik yillarda oliy ta'lim sohasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Viloyatdagi yetakchi universitet Buxoro davlat universiteti hisoblanadi. Mazkur universitet 1922-yilda Buxoro Xalq Jumhuriyati qarori bilan Buxoro va Chorjo‘yda xalq maorifi instituti sifatida ochildi. Bu – zamonaviy oliy o`quv yurti tashkil etish yo`lidagi dastlabki harakat edi. F.Xo`jayev va A.Fitrat shu institut negizida dorilfunun tashkil etish g’oyasi bilan chiqdilar, ammo BXJning tugatilishi bilan bu g’oya amalga oshmay qoldi.

1930-yilga kelib esa Buxoro pedagogika instituti ochildi. Dastlab uning kimyo-biologiya va tarix-ijtimoiyot singari ikki bo‘limda 45 talaba tahsil olgan. 1935-yilda esa BuxDPI tarkibida 2 yillik o‘qituvchilar instituti hamda 5 bo‘lim faoliyat ko‘rsatdi, keyinchalik bu bo‘limlar fakultetlarga aylantirildi. BuxDPI urushdan keyingi yillarda respublikaning yetakchi ilm maskanlaridan biri sifatida shuhrat topdi: talabalar soni 1946–1960-yillarda 521 tadan 1575 taga, 1960–1980-yillarda 7531 taga yetdi.

BuxDUNing daslabki nomlariga ham to‘xtalib o‘tsak. 1930 yilda Buxoro oliy pedagogika instituti deb atalgan bo‘lsa, 1931 yildan Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Buxoro oliy pedagogika instituti; 1933 yildan Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti; 1937 yildan S.Ordjonikidze nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti deb atalgan. 1938 yildan 1954 yilgacha S.Ordjonikidze nomidagi Buxoro davlat pedagogika va o‘qituvchilar birlashgan instituti degan nom bilan yuritilgan [3]. 1981 yildan S. Ordjonikidze nomidagi “Hurmat belgisi” ordenli Buxoro davlat pedagogika instituti; 1990 yildan Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Buxoro oliy pedagogika instituti 1992 yil 15 martidan Buxoro davlat dorilfununi (universiteti) deb atalgan [4]. 1989-yilda esa BuxDPI huzurida tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida aspirantura ochildi. Institut respublikaning zamonaviy ilm-fan markazlaridan biriga aylanib, 1981-yilda orden bilan mukofotlandi. O‘zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil 28-fevraldaggi Farmoniga asosan Buxoro pedagogika

institutiga Universitet maqomi berilgach, imkoniyatlar yanada kengaydi. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimov 1992 yildan viloyatlardagi bir qator pedagogika institutlarini universitetga aylantirib, xalq iqtisodiyotining turli tarmoqlari bo'yicha keng qamrovli bilimga ega oliv malakali mutaxassislarini tayyorlab etishtirish tashabbusi bilan chiqdi. Shunga ko'ra, 1992 yilning 15 martidan Buxoro pedagogika institutiga ham universitet maqomi berilib, uning imkoniyatlari yanada kengaydi. Institut 1992-yilda universitetga aylantirildi [5].

2004–2006-yillarda universitet bo'yicha 2 magistr Prezident stipendiyasi sohibi bo'ldi, 9 nafar talaba davlat, 44 talaba universitet, 32 nafar talaba esa boshqa nomlardagi stipendiyalar sovrindori bo'lishdi. 2004–2006-yillar davomida universitet professor-o'qituvchilari tomonidan 12 ta darslik va o'quv qo'llanma, 250 dan ortiq usuliy ishlar e'lon qilindi, 52 ta elektron o'quv qo'llanma, 2004–2007-yillarda 210 dan ortiq ma'ruza matnlarining elektron versiyasi yaratildi. 2004–2006-yillarda 8 ta doktorlik, 28 ta nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Universitetdagi fan doktorlari soni 1990-1991 o'quv yilidagi 16 tadan keyingi 25 yil ichida 2014-2015 o'quv yiliga kelib 3 barobarga oshir 48 tani tashkil etdi.

Universitetda talabalar soni ham yil mustaqillik yillarida oshib bordi. Jumladan, 1991 yilda universitetda 3200 nafar talab tahsil olgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bir necha barobarga oshib 266246 nafarni tashkil etgan Hozirgi kunda universitetda 19477 nafar talaba tahsil olmoqda [5]. Shunga mutanosib ravishda universitetda ixtisosliklar soni 25 yil ichida 7 martaga oshib 3 tadan 21 taga, dars beruvchi professor-o'qituvchilar soni 2 barobardan oshib 300 tadan 747 taga yetdi. 2024 yilda professor-o'qituvchilar soni 750 nafarni tashkil etgan.

2000 yilda universitetda 48 kafedra faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 37 nafar fan doktorlari va professorlar, 192 nafar fan nomzodlari va dosentlar bo'lajak mutaxassislarga fan asoslarini o'rgatishgan. Ular orasida O'zR FA akademigi K.Muqimov, M.Abdullayev, S.Aliyev, M.Boltayev, N.Jabborov, H.Ne'matov, F.Qosimov, O.Safarov, R.Vohidov, A.Atoyev, O.Yoriyev, P.Musayev,

S.Bo'riyev, O'.Tojiyev va boshqalar samarali natijalarga erishdilar. 2015 yilga kelib Buxoro davlat universiteti huzurida 7 fakultet, 26 kafedra faoliyat ko'rsatgan. O'sha yili universitetda 35 ta'lif yo'nalishi bo'yicha 6246 talaba, 14 mutaxassislik bo'yicha 129 magistr ta'lif olgan. 2000-2001 o'quv yilidan boshlab universitetda 6 ixtisoslik bo'yicha magistrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 14 ixtisoslik bo'yicha magistrlar tayyorlangan [5].

1997 yildan universitet huzurida doktorantura ochilgan. 2012 yilgacha unga aspiranturadan keyin qabul qilingan bo'lsa, 2012 yildan boshlab magistraturani bitirib, kamida 2 yillik pedagogik stajga ega bo'lganlar katta ilmiy xodim-izlanuvchi nomi bilan doktoranturaga qabul qilinmoqda. Buxoro davlat universitetida aspirantura bo'limi 1989 yilda 2 ta ixtisoslik bo'yicha ochilgan bo'lib, shu yil aspiranturaga 5 nafar nomzod o'qishga qabul qilingan. 2010/11 yillarda 23 ta ixtisoslik bo'yicha (aspirantura) stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilik faoliyat ko'rsatgan. 2010-2011 o'quv yilida 18 nafar nomzodlar o'qishga qabul qilingan. 1998 yilda 3 ta ixtisoslik bo'yicha doktorantura o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, 2010-2011 yilda 4 ta, 2015 yilda esa 19 ta ixtisoslik bo'yicha ilmiy izlanish olib borilmoqda. universitetda 1992–2015 yillar davomida 26 ta doktorlik, 201 ta nomzodlik dissertasiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan.

Hozirgi kunda Buxoro davlat universitetida 8 ta fakultet mavjud. Buxoro davlat universitetida matematika fizika, ximiya biologiya va tuproqshunoslik, tarix, falsafa, pedagogika, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, psixologiya fanlaridan yillar davomida ilmiy maktablar shakllanib kelgan va erishgan ijobiy yutuqlari bilan nafaqat respublikamizda, balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan.

2011-2016-yillarda Oliy ta'lif muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish doirasida 25 ta oliy ta'lif muassasasining 202 ta obyektida yangi qurilish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Jumladan, Buxoro viloyatida joylashgan

universitetlarda ham ta'mirlash ishlari bajarildi.

Iqtisodiyotning real sektori talablaridan kelib chiqib, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'qishga qabul qilish, uning umumiy soniga nisbatan 23 foizdan 33,2 foizga oshdi. Oliy ta'lim sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yangilangan davlat oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari joriy qilindi. Shunga mos ravishda Buxoro viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari soni ortib bordi.

Jumladan, hozirgi kunda viloyatda quyidagi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda: davlat universitetlari – Buxoro davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Mir Arab oliy madrasasi; Nodavlat universitetlar – Turon Zarmed universiteti, Acharya universiteti, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti, Buxoro innovatsiyalar universiteti, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti [6].

2017-yilda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat budgetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar budget xarajatlari qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz Yalpi ichki mahsuloti tarkibida 10-12 foizni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Qarorida [11] boshlangan islohotlar qonuniy asosini topdi va bu tizimning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Qarorga asosan 2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari, 2017-2021-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash kompleks chora-tadbirlari, 2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish

dasturini amalga oshirish moliyaviy xarajatlar hajmining hisoblangan parametrlari, 2017-2021-yillarda qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning har yili tasdiqlanadigan manzilli dasturlariga kiritiladigan oliy ta'lim muassasalari ro'yxati, 2017-2021-yillarda o'quv va ilmiy laboratoriya uskunalar bilan jihozlashning har yili tasdiqlanadigan manzilli dasturlariga kiritiladigan oliy ta'lim muassasalari ro'yxati hamda 2017-2021-yillarda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning manzilli dasturlari tasdiqlandi.

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2020-yil 27-fevralidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan so'ng, respublika hududida joylashgan beshta universitet negizida yangi institutlar tashkil etilgan [7]. Qaror ijrosini ta'minlash hamda pedagogik ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadida 2021 yil 6 aprelda Vazirlar Mahkamasining 188-son "Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida Buxoro davlat universitet qoshida Buxoro davlat Pedagogika instituti tashkil qilingan [8].

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 29-iyundagi buyrug'i bilan Mirzohid Daminov Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti direktori lavozimiga tayinlandi. Hozirgi kunda institut rektori Ma'murov Bahodir Baxshulloevichdir. Institutda o'quv jarayoni 2021/2022-o'quv yilidan boshlangan. Hozirgi kunda institutda 6 ta fakultet mavjud. Bular: 1.Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, 2.Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti, 3.Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, 4.Tillar fakulteti, 5.Jismoniy madaniyat fakulteti, 6.Harbiy ta'lim fakulteti [9].

Buxoro shahrida 1958-yilda Toshkent Politehnika institutining sirtqi umumiy mexanika fakulteti ochildi. 1972-yilda mazkur fakultet negizida Toshkent

Politexnika institutining filiali tashkil etildi. 1977-yildan esa Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti mustaqil ta'lif muassasasi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2011 yil 20 maydag'i PQ-1533 son qaroriga asosan Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti negizida Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti tashkil etildi [10].

Ikki yildan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 15 apreldagi PQ-1954-sonli qaroriga asosan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tashkil etildi. Institutda bakalavriat ta'lif yo'naliishlari bo'yicha 5580 nafar talaba va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 146 nafar talaba tahsil oladi. Institutda 430 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqdalar, ulardan 12 nafari fan doktori, professor, 117 nafar fan nomzodi, docentlar, 5 nafar (PhD) falsafa doktorlari bo'lib, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati 31,0 foizni tashkil etadi.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti asosiy faoliyati mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, engil sanoat, to'qimachilik, oziq-ovqat, neftgaz va kimyo sanoati, arxitektura va qurilish, birinchi navbatda „Navoiy“ erkin industrial-iqtisodiy va „Jizzax“ maxsus industrial zonalaridagi korxonalarining yuqori malakali muhandis va muhandis-texnologlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida bakalavriat va magistratura tizimida yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, shuningdek kasb xunar kollejlari maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalarining malakasini oshirish, o'quv jarayonini ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyati bilan integraciyasini hisoblanadi. Institutning umumiyligi maydoni 25 ga. bo'lib, 4 ta o'quv binosi, 2 ta talabalar turar joyi, zamonaviy sport zali va akademik litseyni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 45 ta yo'naliish mavjuddir.

Xulosa. 1991-2024 yillar davomida Buxoro viloyatida oliy ta'lif tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Mustaqillikdan so'ng ta'lif sohasiga berilgan e'tibor natijasida viloyatda oliy ta'lif muassasalari soni ortdi, ularning moddiy-

texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Yangi ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklar ochildi, xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, Buxoro davlat universiteti va Buxoro muhandislik-texnologiya institutining faoliyati hududning ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirishda muhim o'rinni egalladi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lif tizimidagi ushbu ijobiy o'zgarishlar viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida esa bu yo'nalishda islohotlarni chuqurlashtirish va oliy ta'lif sifatini yanada oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [196-сон 31.05.1995. O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. Тошкент, 1992. №9. Б.45-58.
3. Бухарский государственный педагогический институт имени Серго Орджоникидзе. Краткий исторический очерк (1930-1980 гг.) – Т.:Ўқитувчи, 1981.
4. Материал научно технической конференции посвященной 60-летию Бухарского государственного педагогического института. – Бухара, 1990.
5. [Buxoro davlat universitet tarixi | BuxDu-Buxoro davlat universiteti](#)
6. <https://oliygoh.uz/post/buxoro-viloyatida-joylashgan-otmlarroyxati?ysclid=m9ayg9ddf863126612>
7. <https://lex.uz/uz/docs/-5355633>
8. [188-сон 06.04.2021. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
9. <https://buxdpi.uz>

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

10. 213-соҳ 25.07.2011 Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutini Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika institutiga aylantirish to‘g‘risida
11. PQ-2909-соҳ 20.04.2017. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Buxoro viloyatida joylashgan OTMlar ro‘yxati